

OLIIY TA'LIMDA EKOLOGIK FAOLIYATGA O'RGATISH MUAMMOLARI

J.Xamraqulov
FarDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik faoliyatning muhim xususiyatlari, bu faoliyat turlari, ta'lim tizimida ekologik faoliyatga o'rgatishning muhim xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ekologik axloq, geografik determinizm, Integrativ ta'lim, ekoetik kompetentlik, ekologik faoliyat, ekologik axloqiy normalar, ekologik axloqiy faoliyat.*

Ekologik axloqqa doir qarashlarning rivojlanishiga katta turtki bo'lgan geografik determinizmni asoschisi sifatida fransuz mutaffakiri Sh.Monteske tilga olinadi. Ma'lum bo'lishicha, Sh.Monteske va boshqa G'arbiy Yevropa olimlarining kishilik jamiyatiga tabiatning ta'siri haqidagi dunyoqarashlari qadimgi dunyo va Islom sivilizatsiyasi ta'sirida yuzaga kelgan ekan[3,7]. Vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy joyning tabiiy xususiyatlari (tuproq, suv, havo)ni kishilik jamiyatiga va uning faoliyatiga ta'siri haqida to'xtalib, shunday yozadi: «Odamlar tuzilishlarining rangi, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi, faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, odamlar yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir»[4]. Yuqoridagi, havoladan ko'rinib turibdiki, Abu Rayhon Beruniy zamonaviy tilda aytganda «geografik determinizm»ga yo'l qo'yishdan nihoyatda ehtiyot bo'lgan. Insonlarga birinchi navbatda «nasablar», ya'ni kishilik jamiyatining ta'siri borligini ta'kidlash bilan bir qatorda tabiiy omillarning o'rni va ahamiyatiga ham e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi. Bunday yondashuv to'g'ri va o'rinli ekanligini ta'kidlab, A.Soliyev shunday yozadi - «geografik determinizm bu ma'lum darajada mavjud obyektiv holdir, hamma gap uni qanday talqin qilishda»[5]. Bu ham o'z davri uchun ahamiyatli qarash bo'lgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmayotgan qarash hisoblanadi.

Integrativ ta'lim asosida talabalarda ekoetik kompetentlikni rivojlantirish ularni ekologik faoliyatga tayyorlash hisoblanadi. Ekologik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ekologik faoliyat shakllari konkret vazifalaridan kelib chiqib, subyektning muayyan axloqiy normalarni tanlash imkoniyati – jamiyatning rivojlanish darajasiga bog'liq. Chunki jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida, tabiatga nisbatan qilingan yovuzlik, axloqiy jihatdan oqlangan. Hatto qarib qolgan ota-onani yoki kasalmand kishilarni majburiy o'limga mahkum qilish axloqiy norma hisoblangan. Shuni alohida e'tiborga olish kerakki, ekologik axloqiy normalar, biosfera muvozanatini boshqarishning subyektiv vositasi sifatida, inson tomonidan ongli yoki stixiyali tarzda qo'llanilishi

mumkin. Bunda ekologik faollikning ongli yoki stixiyali xarakteri jamiyatning rivojlanish darajasiga mos keladi. Demak, talabalarda ekologik dunyoqarashni rivojlantirish orqali ularni o'zgaruvchan ekologik faoliyatga, qadriyatlarga, urf-odatlariga tayyorlash, o'zgaruvchan sharoitga tez moslashuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Har qanday jamiyat, ma'lum ma'noda, kelajak avlodlarning yashashiga putur yetkazadigan antiekologik xatti-harakatlardan voz kechib, hozir yashayotgan insonlarning ehtiyojlariga kelajak avlodlar manfaatlarini qurbon qilishni ta'qiqlovchi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy normalar majmuasini vujudga keltirgan. O'z navbatida, bu normalar, tabiatning obyektiv rivojlanishi jarayonida, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelishi, biosfera ichki ekologik muvozanatini saqlashi hamda tabiatga antropotexnogen ta'siri bilan bir-biridan farq qiluvchi, nisbatan mustaqil hodisalardir. Ekologik axloqning bu munosabatlarni ongli tarzda, maqsadga muvofiq boshqarishi uning subyektivlik mohiyatini namoyon qiladi. Lekin, genezisiga ko'ra, insonning tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlari obyektivligidan ekologik axloqning obyektivligi ham kelib chiqadi.

Subyektning ekologik axloqiy faoliyati jarayonida tabiatni va o'z mohiyatini o'zgartirishdagi ijodiy roli quyidagilardan iborat:

1. Ekologik axloqiy ehtiyojlarning inson iqtisodiy yashash sharoitiga mos kelmasligi, biosfera muvozanatiga putur yetkazishida o'z ifodasini topadi. Bunda tabiatni muhofaza qilishning anglangan zaruriyati – subyekt ekologik amaliy va nazariy faoliyatining harakatlantiruvchi motividir.

2. Ekologik axloqning nisbiy mustaqilligi, ijodiy faolligi biosfera tabiiy muvozanatini maqsadga muvofiq tashkil qilish bilan xarakterlanadi, ya'ni tabiatni muhofaza qilish faoliyatining yo'nalishlarini muvofiqlashtiradi va konkretlashtiradi.

3. Ekologik munosabatlarda axloq tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlarining passiv hosilasi emas, aksincha, ekologik faoliyatlarni tashkil qilish, boshqarish jarayonlarining emotsional-ruhiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini tashkil qilishi bilan o'zining obyektiv mazmunini namoyon qiladi.

4. Ekologik faollik va mas'uliyat munosabatlarning regulyatori bo'lgan axloqning nazariy hamda amaliy yo'nalishlari, tarixiy tajribalarni umumlashtirish, konkretlashtirish jarayonida, integratsiyalashuvi va differensiallashuvi obyektiv tarixiy zaruriyatdir.

Ekologik adabiyotlarda tabiatdagi ayrim turlarning yo'q bo'lib ketishi biosfera tarixiy rivojlanishning obyektiv zaruriyatidan, sivilizatsiyaning qonuniy natijalaridan kelib chiqadi, deb uni axloqiy jihatdan oqlaydilar va bu jarayonni

tezlashtirishdagi antropotexnogen omilning rolini inkor qiladilar. Darhaqiqat, inson o'z ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida tabiatni, o'z ehtiyojlariga asosan o'zgartirishga majbur, lekin bu o'zgartirishlar biosfera tabiiy muvozanatiga putur yetkazmasligi lozim.

“Rim klubi” asoschilaridan biri A.Pechchei “Inson sifatlarida” kitobida: “Biz sportchilarning, kosmonavt va astronomlarning ayrim sifatlarini rivojlantirishga erishdik, mashinalar, asbob-uskunalar va materiallarini yaxshiladik, tovuq, cho'chqa zotlarini, makkajo'xori navlarini yaratdik. Biz inson mehnati unumdorligini o'stirdik, uning tez o'qish va kompyuterlar bilan tillashish imkoniyatlarini oshirdik. Lekin biz insonning dunyodagi o'rnini topishiga, uning o'zi ega bo'lgan qudratini anglashiga, o'z faoliyatini baholashiga, unumbashariy mas'uliyatini tushunib yetishiga hech qachon jiddiy harakat qilmadik”,– deb yozganida muayyan haqiqat mavjud. Bu inson yashayotgan tabiiy muhitni iqtisodiy manfaatlar doirasida muhofaza qilish masalasi bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy-axloqiy muammo hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Таълим тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. –Тошкент: Ўзбекистон, 2020.
2. Нигматов А., Абдуназаров Л., Мухамедов Ш. Касбий экологик таълим ва тарбия.–Тошкент.:Иқтисодиёт-молия, 2016.
3. Гумелев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. Москва.: Гидрометеиздат, 1999. – С.178.
4. Абу Райхон Беруний. 100 ҳикмат (ибратли сўзлар). - Тошкент.: Фан, 1993. – Б. 11.
5. Солиев А. Иқтисодий ва ижтимоий географиянинг долзарб масалалари. (мактаб ўқувчилари ва талабалар учун тавсиялар)- Тошкент.: РТИИМ. 1995. –Б.45
6. Кондрашова, И.Н. Формирование экологических знаний у студентов небиологических специальностей Электронный ресурс.: дис. . канд. пед. наук: 13.00.02 / И. Н. Кондрашова. Москва, 2003. –С.163.
7. Монтескье Ш. Дух законов.-Ч.2.-Москва.: СПб. 2004. -С. 85..